



The effectiveness of the debate method in English lessons based on the constructivist approach

Shirinoy YUSUPOVA ¹

Chirchik State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

constructivist approach,
free speech,
debate method,
communicative competence,
English language teaching,
non-philological disciplines,
student engagement.

ABSTRACT

This article examines the development of free communication skills among students of non-philological disciplines through the use of the debate method in English lessons from a constructivist perspective. The constructivist approach views language learning not merely as knowledge acquisition, but as a social and cognitive activity. The paper analyzes the advantages and application methods of the debate technique based on constructivist theories proposed by scholars such as J. Piaget, L. Vygotsky, and J. Bruner.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp249-258>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Konstruktivistik yondashuv asosida ingliz tili darslarida debat metodining samaradorligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

konstruktivistik yondashuv,
erkin nutq,
debat metodi,
kommunikativ
kompetensiya,
ingliz tili o'qitish,
nofilologik yo'nalish,
talabalar faolligi.

Mazkur maqolada ingliz tili darslarida debat metodini konstruktivistik yondashuv nuqtai nazaridan qo'llash orqali nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarining erkin muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Konstruktivistik yondashuv til o'rganishni faqat bilim olish emas, balki ijtimoiy va kognitiv faoliyat sifatida baholaydi. Ushbu maqolada J. Piaget, L. Vygotsky, J. Bruner kabi olimlarning konstruktivistik nazariyalari asosida debat metodining afzalliklari va qo'llash yo'llari ko'rib chiqiladi.

¹ Lecturer, Chirchik State Pedagogical University.
E-mail: sbuvarayeva@gmail.com

Эффективность метода дебатов на уроках английского языка на основе конструктивистского подхода

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

конструктивистский
подход,
свободная речь,
метод дебатов,
коммуникативная
компетенция,
обучение английскому
языку,
непрофильное
направление,
активность студентов.

В данной статье рассматривается проблема развития навыков свободного общения у студентов непрофильных (нефилологических) направлений через применение метода дебатов на уроках английского языка с позиции конструктивистского подхода. Конструктивистский подход рассматривает изучение языка не только как усвоение знаний, но и как социальную и когнитивную деятельность. В статье анализируются преимущества и способы применения метода дебатов на основе конструктивистских теорий таких ученых, как Ж. Пиаже, Л. Выготский, Дж. Брунер.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini o'rgatish jarayoni an'anaviy yondashuvlardan interaktiv, talabaga yo'naltirilgan metodlarga o'tayapti. Ayniqsa, nofilologik yo'nalishlardagi talabalar uchun til o'rganish faqat grammatikani o'zlashtirish emas, balki turli hayotiy holatlarda o'z fikrini mustaqil bayon qilish, muhokama va bahs yurita olishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, konstruktivistik yondashuv va unga asoslangan debat metodi o'quvchilarning erkin muloqotga kirishish salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy til o'qitish metodikasi doirasida o'quvchi markazli yondashuvlar, ayniqsa konstruktivistik ta'lim konsepsiyasi, samarali til kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Konstruktivizmga ko'ra, bilim tayyor shaklda emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi, faol aqliy va ijtimoiy faoliyati orqali shakllanadi. Bu yondashuv asosida ta'lim jarayoni o'rganuvchining bilimni "kashf etishi", uni ijtimoiy muloqot orqali mustahkamlashi bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tili darslarida interaktiv metodlardan biri bo'lgan **debat usuli** tilni o'rganishning konstruktiv asosini mustahkamlovchi samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

ASOSIY QISM

Konstruktivistik yondashuv hozirgi zamon ta'lim metodologiyasining ilg'or konsepsiyalaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchining (yoki talabanning) faol ishtirokini, bilimni mustaqil kashf etishini va o'z tajribasiga asoslangan fikrlashni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuv ta'limni oddiy ma'lumot uzatish jarayoni sifatida emas, balki individual bilish, anglash va muloqot orqali o'zlashtirish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Bu nazariyaning asosiy tamoyillari bir nechta nufuzli pedagog va psixologlar tomonidan ilgari surilgan:

◆ **Jan Piaget (1970)** – bilim inson tafakkurining ichki faol mahsuli ekanini ta'kidlaydi. Uning nazarida o'quvchi yangi bilimlarni o'z oldingi bilimlari bilan muvofiqlashtirib (assimilyatsiya va akkomodatsiya) o'z shaxsiy bilim modelini yaratadi. Piaget konstruktivizmning kognitiv yo'nalishiga asos solgan bo'lib, o'quvchi faqat tayyor ma'lumotni emas, balki o'z fikrlarini mustaqil shakllantirishi kerakligini urg'ulaydi.

◆ **Lev Semyonovich Vygotsky (1978)** – konstruktivizmga sotsial yo‘nalishni olib kiradi. U bilimlar ijtimoiy muloqot, til vositasi orqali shakllanishini ta’kidlaydi. “Yaqin rivojlanish zonasi” (ZPD – zone of proximal development) tushunchasi orqali Vygotsky o‘qituvchining, guruhdoshlarning yoki tajribaliroq shaxslarning yordamida o‘quvchi yuqori bilim darajasiga erishishini asoslaydi.

◆ **Jerome Bruner (1986)** – o‘quvchiga yangi bilimlarni kashf etishga imkon beruvchi sharoitni yaratish, interaktiv usullardan foydalanish hamda muloqotga asoslangan o‘rganish muhitini tashkil etish zarurligini urg‘ulaydi. Bruner konstruktivistik metodika doirasida o‘quv materialini turli usullar bilan o‘zlashtirishni (enactive, iconic, symbolic representations) tavsiya etadi.

J. Piaget, L. Vygotsky va J. Bruner kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konstruktivistik yondashuvlar shaxsiylashtirilgan bilim, ijtimoiy muloqot va madaniy kontekstda o‘rganishni ilgari suradi. Ayniqsa, Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi va Brunerning “konstruktiv dialog” g‘oyasi debat metodining didaktik asoslarini yanada mustahkamlaydi. Debatlar orqali talabalar faqat til bilimini emas, balki mustaqil fikrlash, dalillash, erkin nutq va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni ham shakllantiradilar.

Bu nazariy asoslar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol ishtirok, muloqot va muhokama orqali shakllantiradi. Ana shunday sharoitni yaratishda **debat metodidan foydalanish** ayni muddao bo‘ladi.

Debatlar va konstruktivistik yondashuv uyg‘unligi

Debatlar — bu faqatgina fikrlar to‘qnashuvi emas, balki muloqot, tanqidiy fikrlash, pozitsiyani himoya qilish va qarshi dalillarga javob qaytarish orqali **bilimni mustaqil shakllantirish** imkonini beruvchi samarali metoddir. Konstruktivistik yondashuv nuqtai nazaridan olganda, debatlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: **Shaxsiy tajribaga tayanuvchi o‘rganish** – Talabalar berilgan mavzu doirasida o‘z hayotiy kuzatishlari, bilimlari va ilgari o‘zlashtirgan bilimlar asosida pozitsiya bildiradilar. **Ijtimoiy muloqot orqali bilim olish** – Debatlar jarayonida talabalar bir-biri bilan fikr almashadilar, savollar beradilar, e’tiroz bildiradilar, bu esa Vygotsky nazariyasidagi "ijtimoiy konstruksiya" prinsipiga to‘g‘ri keladi. **Faol kognitiv jarayonlarni rag‘batlantirish** – Talabalar dalillar yig‘adi, tahlil qiladi, solishtiradi va o‘z xulosalarini mustaqil ifodalaydi. Bu esa Piaget va Bruner tavsiya qilgan bilimni qayta qurish (reconstruction of knowledge) jarayonidir. **O‘z fikrini asoslash va ifoda qilish malakasi shakllanadi** – Debatlar orqali talabalar og‘zaki nutqda o‘z fikrlarini mustahkam va asosli bayon etishga o‘rganadilar, bu esa kommunikativ kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

2. Debat metodining konstruktivistik asoslari

Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim bu tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchining shaxsiy tajribasi, faol fikrlashi va muammolarni hal etishdagi ishtiroki orqali shakllanadi. Bu yondashuvda o‘quvchi passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, debat metodi konstruktivizm prinsiplarini amaliyotda ro‘yobga chiqaruvchi eng samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Debatlar — bu faqatgina fikr almashinuvi emas, balki tanqidiy fikrlash, dalillash, e’tiroz bildirish, fikrni tahlil qilish va uni himoya qilish, shuningdek, turli pozitsiyalarni tushunishga asoslangan ijtimoiy muloqot shaklidir. Bu metod orqali talabalar o‘zlarining

bilimlarini chuqurlashtiradi, mustaqil fikr yuritadi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Quyidagi jadval orqali debat metodining konstruktivistik pedagogika prinsiplari bilan uzviy bog'liqligi yoritib beriladi:

Shu tarzda, debat metodi konstruktivistik pedagogikaning nazariy asoslarini amaliy ta'lim jarayonida to'liq ro'yobga chiqaradi. U o'quvchilarni faollikka, mustaqillikka, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Ayniqsa, til o'rgatishda bu metod nafaqat til kompetensiyalarini, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy kompetensiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning erkin nutqini rivojlantirishdagi o'rni

Til o'rganish jarayonida erkin og'zaki nutq — eng murakkab va ayni paytda eng muhim ko'nikmalardan biridir. Debat metodining eng katta afzalliklaridan biri ham aynan talabaning og'zaki nutq faolligini ta'minlashidadir. Debat orqali talabalar turli ijtimoiy mavzular bo'yicha fikr yuritishga, uni mantiqan asoslashga, savollarga javob qaytarishga, qarshi fikrlarni inkor qilishga va o'z nuqtai nazarini ishonch bilan ifoda etishga o'rganadi. Bu esa ularning barcha til kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantiradi.

Debat metodining nutq rivojiga qo'shadigan asosiy hissiy quyidagilarda aks etadi:

- **Lexical competence (So'z boyligi):** Debatga tayyorgarlik jarayonida talabalar mavzuga oid keng lug'at boyligini o'zlashtiradi. Ular sinonim, antonim, iboralar va stilistik vositalardan foydalanishga harakat qiladi.
- **Grammatical competence (Grammatik qobiliyat):** Talabalar o'z fikrlarini aniq va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalashga intiladi. Bu esa ularda grammatik birliklarni muloqotda faol qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.
- **Pragmatic competence (Amaliy til qobiliyati):** Har bir vaziyatda mavzuga mos fikr bildirish, savol berish va javob qaytarish, madaniyatga mos muomala yuritish o'rgatiladi.
- **Fluency (Erkinlik va tezlik):** Debatlar og'zaki nutq tezligi va tabiiyligini rivojlantiradi. Talabalar vaqt bilan cheklangan sharoitda fikr bildirishga o'rganadi.

Amaliy misol:

Topshiriq

mavzusi:

“Social media is beneficial for students’ academic life.”
(Debat mavzusi: “Ijtimoiy tarmoqlar talabalar ta'limiga foydalimi?”)

Bosqichlar:

1. **Tayyorgarlik:** Guruhlar “affirmative” va “negative” tarafga ajratiladi. Har bir guruh dalillarni tayyorlaydi, misollar topadi, qarshi dalillarga javob strategiyalarini ishlab chiqadi.
2. **Bahs bosqichi:** Har bir talaba o'z fikrini bildiradi, savollar beradi, o'z raqiblarining fikrlariga e'tiroz bildiradi va o'z pozitsiyasini himoya qiladi.
3. **Refleksiya:** Bahsdan so'ng talabalar o'z nutqini baholaydi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi va kelgusi bahslarda yaxshilash yo'llarini muhokama qiladi.

Konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan debat mashg'ulotlari talabalarda faollik, mustaqil fikrlash, muloqotga tayyorlik, va til kompetensiyalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, nofilologik yo'nalishlarda bu metod talabalarga ingliz tilini faqat dars emas, real hayotiy vosita sifatida o'zlashtirishga zamin yaratadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlillar va tajriba natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, konstruktivistik yondashuv asosida ingliz tili darslarida debat metodidan foydalanish talabalar kommunikativ kompetensiyasi, kognitiv faolligi va sotsiolingvistik malakasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Debat texnologiyasi o'rganuvchining kritik tafakkur, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, va erkin nutq faoliyatini faollashtirish orqali til o'rganish jarayonini chuqurlashtiradi.

Konstruktivizmga asoslangan didaktik modelda o'quvchi bilimni passiv iste'molchi emas, balki faol kashf etuvchi sifatida qatnashadi. Debat metodining qo'llanishi bu modelni amalda qo'llash imkonini yaratadi, chunki u interaktiv o'qitish, kooperativ o'rganish, va refleksiv tahlil jarayonlarini o'z ichiga oladi. J. Piagetning kognitiv konstruktivizm, L. Vygotskyning sotsial interaksiyaga asoslangan rivojlanish nazariyasi va J. Brunerning o'rganishda faollik tamoyili asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar debatning lingvistik va pedagogik qiymatini asoslab beradi.

Shunday qilib, ingliz tili darslarida debat metodidan konstruktivistik asosda foydalanish – bu zamonaviy til o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi va faol ta'lim strategiyalarini uyg'unlashtiruvchi samarali vosita bo'lib, ayniqsa nofilologik yo'nalish talabalari uchun til kompetensiyasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Piaget, J. (1970). The Science of Education and the Psychology of the Child.
2. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
3. Bruner, J. (1986). Actual Minds, Possible Worlds.
4. Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy.
5. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching.
6. Slavin, R. E. (1996). Research on Cooperative Learning and Achievement: What We Know, What We Need to Know.
7. Alqahtani, M. (2015). The Effectiveness of Using Debates in Developing Speaking Skills. Journal of Education and Practice.